

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O’STIRISH VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH USTIDA ISHLASH

Abdullayeva Mavluda Aribovna - Andijon davlat pedagogika instituti, Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o’stirish va tafakkurini rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga asoslanish lozimligini ko’rsatdi: yaxlit yondashuv; ta’lim oluvchiga – pedagogik qo’llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi, individual munosabatda bo’lishni talab etuvchi shaxs deb qarash; ta’limiy ish mazmuni, shakl va metodlarini tanlab olishda tabaqalashtirilgan yondashuv; tabiat bilan uyg’unlik; madaniyat bilan uyg’unlik; ta’limiy tarbiyaviy jarayondagi munosabatlarni tashkil etishga insonparvar yondashuv; qadriyatli-mazmunli yondashuv ifodalangan.

Kalit so’zlar: Kreativlik, tafakkur, harakatlar strategiyasi, zamonaviylik, ta’lim-tarbiya, madaniyat, innovatsion ta’lim, pedagog, maqsad, kasbiy kompetentlik.

Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda, o’tgan davrda O’zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirish va uning samarali faoliyat ko’rsatishiga qaratilgan qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Haqiqatdan ham, “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi” to’g’risidagi farmonning, hamda 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan olgan holda maktabgacha ta’lim muassasalarining meyoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, o’quv-uslubiy ta’minotini yanada mukammallashtirish, ta’lim menejmenti va nazoratini zamonaviy innovatsion usul va shakllari asosida boyitib borish, turli ta’lim texnologiyalarini manzilli qo’llash asosida ta’lim-tarbiya sifatini tubdan o’zgartirish borasida muhim vazifalar belgilab berildi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish, ijrosini ta’minlashda o’quv biluv faoliyatining ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarining uyg’unligi asosida:

- kreativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metodik va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;

- yangi ijtimoiy talablarga mos tarzda ta’lim vositalarni ishlab chiqish, joriy etish va qo’llash tizimi o’quv jarayonini pedagogik mazmuni, samarali shakl va metodlarini to’g’ri tanlashga bevosita bog’liq bo’lib hisoblanadi.

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o’stirish va tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mazmuni o’quv uslubiy adabiyotlar va qo’llanmalar, darsliklar, DTS, namunaviy va ishchi dasturlarda o’z aksini topgan bo’lib, ta’limiy jarayonda zamonaviylikni ta’minlash ya’ni o’quv biluv faoliyatlarida ilmiy asoslangan va tajribada sinalgan ta’limiy mashg’ulotlarga oid yangiliklar, faol metodlar va shakllar, tartib qoidalarni joriy etishning majburiylikiga, shuningdek ta’limning taraqqiyot darajasi uning mazmuniga kiritilayotgan fan-texnika yutuqlari bilan tavsiflanadi.

Biz mazkur tadqiqot ishi doirasida kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarnutqini o’stirish va tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mazmunini belgilab berishda yuqoridagi komponentlar bilan bir qatorda:

–modulli-tarmoqli texnologiya; ta’limiy jarayonni modellashtirish alohida qism (modul)lari, xususiylar, tarmoqli, didaktik, metodik yoki tarbiyaviy vazifalarni hal etuvchi faoliyatni ifodalaydi(mas.: subyekt va obyektning alohida faoliyat turlari, faoliyat turlarini

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

o’rganish, tadbir, tarbiyalanuvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini, o’zlashtirish darajalarini nazorat qilish texnologiyalari)dan foydalanish;

– nutq o’stirish va tafakkurni rivojlantirish jarayoni intellektual bilish psixologiyasi bilan uyg’unligini ta’minlashga erishish ya’ni tarbiyalanuvchilarning fikrlashlari, bilish psixik jarayonlarining teranligi, bilim, o’quv va ko’nikmalarni shakllantirish jarayoni;

– o’quv faoliyatida kichkintoylarning ichki, tashqi pozitiv motivatsiyalarini rivojlantirish;

–ta’limiy jarayonda emotsional sohani rivojlantirish;

–mashg’ulotlarda innavatsion texnologiyalarning samarali usul va vositalarini qo’llash orqali tarbiyalanuvchilarning o’zlashtirishlari lozim bo’lgan materiallarni idrok etish, bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish uchun ko’nikma va malakalar hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi degan xulosaga keldik.

Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarimiz jarayonida bir qator maktabgacha ta’lim sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan pedagog olimlar, psixolog olimlarning mazkur sohaga oid ilmiy izlanishlari to’g’risidagi fikrlarini mushohada qildik va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari nutqini o’stirish va tafakkurini rivojlantirish pedagogik mazmunini: ta’lim jarayoniga kretaiv yondashadigan bo’lsak, bu jarayonning asosiy komponentlari (ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, ta’lim metodi, ta’lim vositasi, ta’lim natijasi) asosida quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

- ta’lim maqsadi bilan bog’liq innavatsion ta’lim integratsiyasi;

- ta’lim mazmuni bilan bog’liq pedagogik innovatsiyalar: yangi dastur, dasturni takomillashtiruvchi, o’quv materialini to’ldiruvchi;

- ta’lim mazmunini loyihalashga ko’ra – meyoriy hujjatlar o’zgarishi asosida rejali, oldindan o’ylangan, ichki va tashqi;

- ta’lim metodi bilan bog’liq pedagogik innovatsion muhit;

- maktabgacha ta’lim tizimida ta’limiy jarayon shakli va turida: darajasiga ko’ra takomillashtirish, ko’rinishini o’zgartirish, ma’lum uslubiyot elementlarini yangicha talqinda ishlab chiqish;

- ta’lim vositasi bilan bog’liq ta’lim mazmuni;

- ta’lim natijasi bilan bog’liq o’zlashtirish mazmuni.

Kuzatishlarimiz asosida aytish o’rinliki, maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida, nafaqat tadbirlar (bayram ertaliklari)da balki o’quv jarayoniga ota-onalarni hamkorlik asosida jalb qilish ishlariga alohida e’tibor berish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Kichkintoylar uchun ota-ona birinchi ustoz, ular o’z farzandlarining har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish muhim ekanligini his etgan holda, ta’lim-tarbiya jarayoniga bevosita ishtirok etishlari o’qitishning interaktiv metodlari bo’yicha ta’lim mazmuni yuzasidan o’zlarining bilim, malaka va ko’nikmalarni muntazam ravishda yangilab borish imkoniyatiga ega bo’ladilar. (Tajribalarimiz davomida biz ota-onalarning pedagogik bilimlari sayozligi guvohi bo’ldik)

Ta’lim-tarbiya – ota-onalar va murabbiylardan katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvni talab qiladi. Fikrimizcha, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari nutqini o’stirish va tafakkurini rivojlantirish tizimini takomillashtirishda ta’lim mazmuniga mos, shuningdek, ta’lim jarayonining boshlang’ich bosqichida talab etilgan zamonaviy dunyoqarashga ega bo’lgan raqobatbardosh kadrlarni ish bilan ta’minlash muhim deb hisoblaymiz.

Bu esa, tarbiyachilarning kreativlik potensialini, kompetentligini takomillashtirish jarayonlarida har bir pedagog belgilangan ta’limiy maqsadiga erishish bo’yicha tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o’zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo’lini tanlaydi degan ilmiy xulosaga kelishimizga sabab bo’ladi. Masalan, an’anaviy metodlar (uning asosida falsafiy

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

va pedagogik tizimlar tashkil etadi), ko‘rgazmali metodlar, aks ettiruvchi metodlar, kitob bilan ishlash metodi, video metodlar.

S.Sanoyeva ilmiy izlanishlariga ko‘ra metodlarning turlarini tahlil etar ekanmiz ularni ikki toifaga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- didaktik maqsadi bo‘yicha metodlarning turlari;
- qabul qilish - bilish faoliyati xarakteri bo‘yicha metodlarning klassifikatsiyasi .

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarnutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda yuqoridagi metodlar o‘ziga xos vazifalarni bajaradi, ya’ni: motivlashtiruvchi, tashkillashtiruvchi, rivojlantiruvchi, bilim beruvchi (ta’lim beruvchi), tarbiyaviy, ta’limiy.

Demak, kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda ta’lim metodlarini ham maqsadga muvofiq tanlash va o‘z o‘rnida qo‘llash talab etiladi. Shuningdek, ta’limiy vositalar: tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib mavzu mohiyatini yoritishga xizmat qiladigan tarbiyachi va tarbiyalanuvchi tomonidan ta’lim jarayonida qo‘llanadigan turli obyektlar; ta’limiy jarayonni o‘zlashtirishga xizmat qiladigan yordamchi vositalari va didaktik materiallar:

- o‘quv biluv jarayonini vizualizatsiyalash, uni tushunish va eslab qolish; (bilish psixik jarayonlari: sezgi, diqqat, idrok, xotira, xayol, tafakkur.)

- ta’limiy materiallarni mustaqil tarzda mustahkamlash va qo‘llash uchun imkoniyat yaratadi. (esda olib qolish va esga tushirish jarayonida nutq faolligi)

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarnutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”, Davlat o‘quv dasturi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o‘quv dasturlari, o‘quv rejasi, haftalik va kunlik rejalaridan oqilona foydalanish muhim pedagogik omil bo‘lib hisoblanadi. Alohida ta’kidlash o‘rinliki, yana bir muhim omil Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha Davlat o‘quv dasturi asosida yillik, oylik, haftalik ishchi dasturlari talablariga mos kelish darajasi. Bu borada tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarining tahliliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarnutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish, ya’ni tarbiyachilar o‘rtasida kreativ kompetensiyalar tizimini baholashda asosiy e’tiborni ijodiy tafakkurni shakllantirish bilan bog‘liq jihatlarga alohida e’tibor qaratilganligi ahamiyatlidir. Bu esa, o‘z navbatida kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarnutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish mazmuni, bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan malaka talablarida mazkur jihatlarni alohida e’tiborga olish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqib, aytishimiz mumkin ki maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishga qo‘yilayotgan talablar va ta’lim konyunkturasi tez o‘zgarayotgan sharoitda, maktabgacha ta’lim sohasidagi barcha ta’lim dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo‘lishini ta’minlanishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayoninimodernizatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyat muhitini amalga oshirish mexanizmi va tashkil etishning istiqbolli texnologiyasi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion jarayonning muvaffaqiyatli borishi tarbiyachilarning mashg‘ulotlarni kreativ yondashuv asosida tashkil etishga bevosita bog‘liq. Bilamizki, ta’lim-tarbiya tizimidagi har qanday yangilik g‘oya, fikr, innovatsiya bo‘la olmaydi Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarnutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish texnologiyasi bevosita innovatsiya asosida amalga oshiriladi, ya’ni shakl, vosita hamda metodlar yangilanadi, tizimli va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to’la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo’nalishlari ochiladi, zamonaviy texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o’zi ham yangilanadi.

Shu o’rinda maktabgacha yoshdagi bolalarnutqini o’stirish va tafakkurini rivojlantirishning muhim ko’rsatkichlaridan biri sifatida tarbiyachining bolalarga to’g’ri motivatsiya bera olishi ham bevosita ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko’rsatishini e’tirof etib o’tish lozim. Motivatsiya uyg’otish bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish bilan bir qatorda bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo’llab-quvvatlash, o’yin orqali ta’lim berish va rivojlantirish, shuningdek ta’lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarning o’zaro bog’liqligini ta’minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan yondashsak motivatsiya - bu tarbiyachining o’z kasbiga bo’lgan qiziquvchanligi hisoblanadi. O’z kasbini sevmagan, o’z kasbiga qiziqmagan tarbiyachi ideal darajada kreativ faoliyat bilan shug’ullanadi deb aytish qiyin. Ilmda motivatsiyaning qo’yidagi shakllari aniqlangan:

- tashqi motivatsiya – ijtimoiy ta’sirlarning natijasida shaxsning muayyan faoliyatni amalga oshirishga bo’lgan yo’nalish olishi. Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining barcha turlarida, maktabgacha ta’lim tizimida ham ta’lim-tarbiya ishlari innovatsion yangiliklar bilan boyib, pedagogik texnologiyalar hamda didaktik tizimlarning turli shakllaridan foydalangan holda tashkil etilmoqda. Bu esa, o’z navbatida har bir pedagogdan o’zining kasbiy faoliyatini qayta ko’rib chiqish va tashkil etishni, ya’ni pedagogik faoliyatning kreativ xarakterga ega bo’lishini talab etmoqda;

- ichki motivatsiya – tarbiyachilarning faoliyat yuritishini ta’minlashga qaratilgan o’zining hohishi, ehtiyojlari va manfaatlaridir. Yangi didaktik talablarga javob beradigan, pedagog kasbining mazmunini chuqur tushunadigan, individual va kasbiy sifatlarini rivojlantirib borish bilan bir qatorda pedagoglarning o’z kasbini samarali tashkil etishga qaratilgan pozitiv motivatsion tayyorligi katta ahamiyatga ega. - pedagogik faoliyatning motivlar strukturasi ichki motivga ega bo’lish;

- natijaga erishishga bo’lgan motivatsiya;

- tarbiyachining o’z-o’zini rivojlantirishga yo’naltirilgan motivatsiya

Mazkur motivatsiya asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi Davlat talablarida belgilangan maqsad va vazifalarni mobilligi va istiqbolligini ta’minlaydi.

Davlat talablarining maqsadi – mamlakatda o’tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg’or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining vazifalari: maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish; ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlashdan iborat, deb belgilangan.

Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida amaliyotga tatbiq etiladi: bolaning noyobligi; "Men" konsepsiyasini yaratishda bolaning roli; bolaning huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi; bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning o’rni; bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli har bir bolaga moslashuvchan, individual variativlik asosida yondashish.

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o’stirish va tafakkurini rivojlantirishda innovatsion ta’lim jarayoni bilan olimlarning kreativ

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan fikrlari bizga yetakchi metodologik manba bo’lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan metodist tarbiyachilarni kreativ potensialini shakllanishi bir necha bosqichlarni o’z ichiga oladi. Bular:

1-bosqich. Bu bosqichda pedagoglarga tayyor metodik ko’rsatmalar beriladi;

2-bosqich. Bunda tayyor material va tizimlarga ayrim qo’shimchalar (modifikatsiyalar) va metodik tavsiyalar kiritiladi;

3-bosqich. Yangi g’oyani amalga oshirishning mazmuni, metodlari, shakllari to’liq ishlab chiqiladi;

4-bosqich. Bu bosqichda o’qitish va tarbiyalashning o’ziga xos betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi

Fikrimizcha, yangi g’oyani amalga oshirish orqali tarbiyachilar kreativ kompetentlikni rivojlantirishning qo’yidagi darajalariga erishish mumkin: - mahsuldorlik, ya’ni ishlab chiqilgan yangiliklarning kreativlik ahamiyati; - pedagogik jarayonlardagi turli masalalarni hal etishga doir masalalarni ko’tarib chiqish; - o’ziga xos original yechimlarni tavsiya etish; - hal etish mumkin bo’lgan konsepsiyalarni yoki pedagogik yondoshuvlarni davom ettirish yoki boshqa variantlarini topish va h.k

Aytish joizki, bola ta’limi va rivojlanishida innovatsion texnologiyalarni tashkil etuvchi asosiy struktura, uning komponentlari bilan pedagogik texnologiyaga qo’yiladigan talablar ham bugungi kunda kengayib bormoqda. Kuzatish va tahlillarimiz asosida aytishimiz mumkinki, maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabga ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko’nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqini tushunishi, ular bilan erkin fikr almashishi, hamkorlik asosida faoliyat ko’rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to’g’ri ifodalashi, o’zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi tafakkur operatsiyalarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifani bajarishda, albatta, nutq o’stirish va badiiy adabiyot mashg’ulotlarining ahamiyati kattadir. Quyidagi biz mashg’ulotlarda kreativ yondashuv asosida bolalar nutqini o’stirish va tafakkurini rivojlantirish vazifalarini quyidagi ko’rinishda tasvirlash mumkin degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Bikbayeva N.U., Ibrohimova Z.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. –T.: O’qituvchi, 1995. –181 b.

2. Berdaliyeva G.A. “Maktabgacha ta’lim muassasalari nutq o’stirish mashg’ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019

3.Valixojayeva F.B. Talabalarni MTMda bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash. //Dissertatsiya. Samarqand – 2005 y., 139b.

4.Vaxabova F.N. Osobennosti lichnostnogo razvitiya doshkolnika kak faktor gotovnosti k shkole. Dis....kand.psix.nauk / TashU im. M.Ulugbeka –T., 2000. -136str.

5.Venger A.L., Sukerman G.A. Psixologicheskoye obsledovaniye mladshix shkolnikov. –M.: Izd-vo “Vlados-press”, 2003. – 160 s.

6..Veraks N.YE. Voznikoveniye i razvitiye dialekticheskogo mishleniyau doshkolnikov.Dis....kand.psix.nauk- Moskva, 1990.

7..Vigotskiy L. S. Voobrajeniyeye i tvorchestvo v detskom vozraste. –Moskva: Prosvesheniye, 1991. –293 s.

8..Vigotskiy L. S. Pedagogicheskaya psixologiya. –Moskva: Pedagogika, 1991. –480 s.